

# INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

UDK 372.881.111.1

Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi

Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Email: [ahmadjonovaodina2020@gmail.com](mailto:ahmadjonovaodina2020@gmail.com)

Tel: +99897 251-01-07

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda ta'lim sohasi dolzarb sanalgan masalalardan bir STEAM ta'lim texnologiyasidan ingliz tili darslarida foydalanish haqida so'z boradi. Shuningdek maqolada, ingliz tili darslarida o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda matn bilan ishlashning uch bosqichdan foydalanishga doir mashqlar taqdim etilgan va misollar orqali ko'rsatilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** STEAM, nutqiy kompetensiya, o'qish kompetensiyasi, Klaster metodi, Blum turkumi, Aqliy hujum metodi

## METHODS OF DEVELOPING PUPILS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE ENGLISH CLASSES ON THE BASIS OF STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY

Akhmadjonova Odina Anvarjon kizi

Namangan State university 1<sup>st</sup> year PhD student

Email: [ahmadjonovaodina2020@gmail.com](mailto:ahmadjonovaodina2020@gmail.com)

[Phone number](tel:+998972510107) : (97) 251-01-07

**Abstract:** This article reveals information about the use of STEAM educational technology, that is one of the most vital issues, in the English classes. Additionally, the article demonstrates three stages of reading comprehension such as pre-

*reading ,while-reading, post -reading which helps to improve pupils' reading competence in the English language classrooms and as well as suggests a number of activities related to this.*

**Keywords:** *STEAM, communicative competence,reading competence,Cluster method, Bloom's taxonomy,Brainstorming method.*

## **МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM**

Ахмаджонова Одина Анварджон кызы

Аспирант 1 курса Наманганского государственного университета

Электронная почта: [ahmadjonovaodina2020@gmail.com](mailto:ahmadjonovaodina2020@gmail.com)

Тел:(97) 251-01-07

**Аннотация:** *В этой статье раскрывается информация об использовании образовательной технологии STEAM, которая является одной из наиболее актуальных проблем на уроках английского языка. Кроме того, в статье демонстрируются три этапа понимания прочитанного, такие как предварительное чтение, во время чтения и послесловие-чтение, которое помогает улучшить навыки чтения учащихся на уроках английского языка, а также предлагает ряд мероприятий, связанных с этим.*

**Ключевые слова:** *STEAM, коммуникативная компетентность, читательская компетентность, Кластерный метод, таксономия Блума, Метод мозгового штурма*

## **KIRISH**

Bugungi globallashuv davrida butun jahon bo'ylab ta'lim sohasini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim har bir davlatning ma'naviy-madaniy hayoti va ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Ta'lim paradigmasida har bir o'quvchining individual rivojlanish imkoniyatlari hisobga olinib, zamonaviy o'qitish tizimida yangi ta'lim texnologiyalari, jumladan, STEAM- ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarda fanlarga oid kompetensiyalarni shakllantirish , ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, muloqotga tezda kirisha olish, tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sohasining ajralmas bo'g'ini hisoblanuvchi maktab tizimida fanlarning o'qitilishida STEAM texnologiyasidan unumli foydalanish zaruriyatini taqozo yetadi. Xususan , ingliz tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishni STEAM ta'lim texnologiyasi asosida shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ham yuzaga keltirmoqda.


## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOD METODOLOGIYASI**

Mazkur maqolada xorijlik olimlardan STEAM ta'lim texnologiyasi nazariyotchisi G. Yakmanning [1] ilmiy izlanish natijalari, hamda yurtimiz olimlaridan J. Jalolovning [2] chet tili o'qitish metodikasi borasidagi fikrlari hamda tadqiqodchilar S. Misirov [3] G. Hamrayeva [4] va A. Ermirzayev [5] larning ingliz tili darslarida o'quvchilarda o'qish kompetensiyasi rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari atroflicha o'rganildi va tahlil qilindi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bugungi globallashuv jarayoni davrida sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar tufayli , ingliz tili muloqot vositasi sifatida eng kerakli tilga aylanmoqda. Ingliz tili jamiyatda ijtimoiy o'rnini topish istagida bo'lgan yoshlar o'rganishi zarur bo'lgan fanlardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda, jamiyatning ajralmas qismi bo'lmish

maktablardan o'quvchilarni nafaqat aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, balki "21-asr qobiliyatlari"ni shakllantirishlari ham talab etilyapti. Bu qobiliyatlar – muloqot, birgalikda ishlash , tanqidiy fikrlash va yaratuvchanlik qobiliyatlaridir. STEAM dasturi yangi asr qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan dastur sifatida yaratilgan birnecha dasturlardan biridir.[1;3] STEAM ta'lim hamda an'anaviy ta'lim o'rtasida bir qancha farq bor




**1-rasm. An'anaviy ta'lim va STEAM ta'lim dasturining asosiy farqlari.**

Tadqiqotimizda asosan yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida nutqiy, xususan, o'qish kompetensiyasini STEAM texnologiyalar orqali rivojlantirishni maqsad qilganmiz. Chunki, o'qishning shaxs tarbiyasidagi o'rni beqiyos bo'lib, u tom ma'noda ma'naviy-ma'rifiy ozuqa olish yo'lidagi nutqiy faoliyat, harakat turidir. Reseptiv nutq faoliyati turi hisoblanmish o'qishni o'rgatishdan ingliz tilida umumta'limiy maqsad ko'zda tutiladi[2;231]. Inson umri davomida axborot olishning asosiy turi o'qish hisoblanadi. O'qish kompetensiyasini esa STEAM ta'lim texnologiyasi asosida zamonaviy usullarda rivojlantirish o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishga yordam berish bilan birga tanqidiy fikrlash, muommoni hal etish, yaratuvchanlik , jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ingliz tili darslarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda asosan matn bilan ishlashning uch bosqichiga e'tibor qaratdik: pre-reading, while-reading va post -reading, ya'ni matn bilan ishlashdan oldingi bosqich, matn ustida ishlash

bosqichi va matn o'qilgandan keyingi bosqich. Matn bilan ishlashning bu usulining bir qancha afzalliklari bor. Jumladan, matnoldi o'qish mashqlari o'quvchilar berilgan matnni o'qishdan oldin bajarishi kerak bo'lgan mashg'ulot turi hisoblanib, matnni o'qish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Garmer bu mashq turiga "Lead-in" (olib boruvchi) deb nom beradi[5;69]

Matnoldi mashqlariga "Brainstorming" – "Aqliy hujum" mashg'uloti misol bo'la oladi. O'qituvchi tomonidan matn mavzusiga aloqador savollar beriladi hamda o'quvchilarning fikrlari o'rganiladi. Bu mashqda o'rganuvchilarning fikri "Cluster" texnologiyasi yordamida doskada jamlab yozib borilishi maqsadga muvofiq. Agar matn "Childhood" bolalik mavzusida bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilardan "What do you remember about your childhood?" "Bolalik deganda nima hayolingizga keladi?" qabilidagi savollar berib, har bir o'quvchining javobini quyidagi rasm tarzida doskada qayd etib borishi mumkin.



### 1. Rasm: Cluster (klaster) metodi.


Matnoldi bosqichining taklif etilgan mazmunli komponenti an'anaviysidan shunisi bilan farq qiladiki, unda real xayotiy, ba'zida to'liqlantiradigan va jiddiy, ba'zida qiziqarli, matndagi keyingi axborot bilan bog'liq bo'lgan muammo muhokama etiladi. [4;45] Bu bosqichda an'anaviy tarzda talaffuz, grammatik va

leksik qiyinchiliklarni bartaraf etish, matndagi axborotni sarlavhasidan, o'qituvchining savollaridan kelib chiqib, tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Matn bilan ishlashning keying While-reading- Matnni o'qish bosqichida berilgan tekst bilan ishlanadi. O'qishning bu bosqichidagi asosiy maqsad matnda berilgan ma'lumotni o'zlashtirish ,o'qib tushunishdan iborat bo'ladi. Matn bilan ishlash bosqichida quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq: *Topic sentence*(Asosiy mazmun beruvchi gap): matn ichidagi har bir paragraf asosiy mazmunga ega bitta gapdan tashkil topadi, o'quvchilar ana shu gapni topish uchun matn paraqraflarini yaxshilab o'qib , dalil bilan sharhlab berishlari zarur bo'ladi; *Jigsaw Reading*( Matnni qismlarga bo'lib o'qish): sinfdagi o'quvchilar 5-6 kishidan iborat guruhlariga ajratiladi hamda bir nechta paraqraftan tashkil topgan matn qismlari har bir o'quvchiga bittadan paragraph shaklida bo'lib beriladi, har bir o'quvchi o'zi mas'ul bo'lgan matn qismini o'qigandan so'ng, guruh bilan birgalikda tahlil qilishadi.

Matn bilan ishlashning oxirgi Matnni o'qilgandan keyingi bosqichda asosan og'zaki mashq turlaridan foydalaniladi: *Discussions* (Muhokama): o'quvchilar uch-to'rt kishidan iborat guruhlariga ajratiladi hamda ularga muhokama qilishlari uchun matnga aloqador savollar beriladi. Savollar o'z ichiga matndagi qahramonlar, ularning qanday o'zini tutishi, matn ayanan qaysi jihati bilar o'quvchilarni o'ziga tortgani hamda matndan nimalar o'rganishganligi haqida bo'lishi mumkin.*Story continuation* (Hikoyani davom ettirish) : o'quvchilarga matn o'qib bo'lingandan so'ng o'lash uchun biroz vaqt beriladi. Bu vaqt oralig'ida ular matnning mantiqiy davomi qanday bo'lishi mumkinligini o'z talqinlarida ifoda etib berishlari zarur.Matn o'qilgandan keyingi bosqichda o'quvchilarning matnni o'qib tushunganligini tekshirish va tushunish jarayonini osonlashtirish maqsadida Bloom's taxonomy(Blum turkumi) jadvalidan foydalanish mumkin. Bloom's taxonomy (Blum turkumi ) Benjamin Bloom boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan kognitiv tushunish bosqichlari turkumidir. Ushbu turkum olti darajadan iborat bo'lib, LOT(Lower Order Thinking ) va HOT (Higher

Order Thinking) ya'ni fikrlashning quyi bosqichlari qaysiki ko'p aqliy mehnat talab qilmaydigan bosqich hamda fikrlashning oliy bosqichlari ya'nikim kognitiv fikrlashning yuqori darajasi talab etiladigan ikki katta turkumga ,o'z navbatida, bu turkumlar yana uchta turkumga bo'linadi.



### 3-rasm. Bloom's taxonomy (Blum turkumi )

Ushbu rasmdagi quyida joylashgan uch bosqich Remember(eslab qolish) berilgan ma'lumotlarni yodda saqlash, Understand (Tushunish) eslab qolingani ma'lumotlarni tushunish, turlarga ajratish, muhokama qilish va boshqalarga tushuntirib bera olish hamda Apply (Qo'llash) eslab qolib, tushungan ma'lumotni yangi vaziyatda qo'llay olish deya nomlanadi. Fikrlashning yuqori darajasini talab qiladigan (HOT) turkumi Analyse(Tahlil qilish) darajasi olingan ma'lumotni taqqoslash , tahlil qilish , tekshirishdan iborat bo'ladi. Evaluation (Baholash) mantiqan tahlil qilish, tanqidiy yondashib o'z xulosalarini bildirish, berilgan ma'lumotga aloqador bahs-munozaralarda qatnashish nazarda tutadi. Keyingi daraja Create(Yaratish ) ya'ni olingan ma'lumotlar asosida o'zining yangi loyihasini yaratish nazarda tutiladi. Quyida matnni bosqichlarga bo'lib o'qitishga namuna keltirdik:

**Bully for you**


The makers of a controversial computer game about bullying have decided to go ahead and launch it despite calls for it to be banned. In the game, players take on the role of a new students at a school and have to fight the bullies, by punching them or hitting them with a baseball bat.

Critics have said that the game encourages violence, but the makers deny this and say that, while there is violence in the game, it is just an amusing look at school life, besides which, the violence in the game is directed against the bullies to protect pupils who are being bullied. The makers also say that players will learn to stand up to bullies.

A British politician, a former minister, has called for it to be banned as it might affect the way young people perceive violence. Anti-bullying charities have said that the game might make people respond violently to bullies, which might make things more complicated and result in injuries.

---

**Pre-reading activity: “Brainstorming” activity is held on the topic of “What are the advantages and disadvantages of computer games ”and pupils’ answers are generalised and put in the Cluster method.**



**1-Jadval. Komputer o'yinlarining salbiy va ijobiy ta'sirlari.(Advantages and disadvantages of computer games)**

**While-reading activity: Read the statements below and decide which is right and which is wrong.**

**Q1** - The makers of the computer game decided not to release it.

**Q2** - In the game, the player takes on the role of a bully.

**Q3** - The game is set in a university.

**Q4** - Everyone agrees that the game encourages violence.

**Q5** - A British politician has spoken in favour of the game.

**Q6** - The politician used to be a minister.

**Q7** - The politician thinks it might make young people look at violence differently.

**Q8** - The anti-bullying charity thinks the game is good because it might make pupils stand up to bullies.

**Q9** - The anti-bullying charity thinks that people might get hurt because of this

**Q10** - The makers of the game have changed the contents before releasing it in the UK.

**Post-reading activity: Write an essay about “Advantages and disadvantages of playing computer games”.**

Ingliz tili darslarida STEAM fanlar tarmog'iga oid matnlar bilan yuqoridagi namuna tarzida ishlash ta'lim oluvchilarning nafaqat o'qish kompetensiyasi rivojlanishiga balki, darsni qiziqarli va samarali o'tishiga ham sabab bo'ladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yurtboshimiz qaror va farmonlari hamda davlat ta'lim standartlari , dastur va o'quv rejalarda belgilanganidek, STEAM ta'lim texnologiyasini bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim bo'g'inlariga joriy etish muhim masalaligicha qolmoqda.Shunga munosib tarzda, ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalaridan biri hisoblanuvchi o'qish kompetensiyasini STEAM texnologiyalari orqali rivojlantirish bir necha afzalliklarga erishish imkonini beradi. Ta'lim oluvchilarda yaratuvchanlik, muommoni hal etish , tanqidiy fikrlash singari qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlatirishga sabab bo'ladi. Shuningdek, ingliz tili darslarida STEAM fanlariga oid matnlar bilan ishlash o'quvchilarda kelajak kasblari hisoblanuvchi STEAM kasblariga qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, –1996. –231
- 2.G.Yakman. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education: <https://www.facebook.com/georgetteyakmanSTEAM>
- 3.Misirov S.A. Kasb-hunar kollejlari ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari: Ped. fan. nomz. dis. – Toshkent: TDPU, –2007. –B 156
- 4.Hamrayeva.G.I Benefits of implementation of pre-, while and post reading activities in language learning.// Международный научный журнал // № 4, 2016 // Педагогические науки .с.45-46
- 5.Ermirzayev.A.V.Yuqori sinf o'quvchilarining soslolingvistik kompetensiyasini mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qish orqali rivojlantirish texnologiyasi:Ped. fan.nomz.dis-Namangan:NamDU,-2022.-B 69